kengash.gov.uz *VII-4-023-7-92-K/24*

XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-023-7-92-K/24 Oqdaryo tumani

Oqdaryo tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Samarqand viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/10-38/3532-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-5-025-7-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **116 045 120,0 ming so‘m** xarajatlari ham **116 045 120,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **966 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi hamda tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlar va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 470 058,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy

beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari E.Ashurov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Ismoilov), tuman soliq inspeksiyasi (O.Ilyasov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Oqdaryo Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Rabbanaqulov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi QUDRATOV SHERZOD ASATOVICH

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Oqdaryo tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**116 045 120**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 753 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	44 575 260
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 242 000
4	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	5 281 220
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 890 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 204 240
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	15 714 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 606 000

9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 110 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 471 400
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	198 000

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Oqdaryo tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**116 045 120**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	28 971 676
	shundan:	
	“Mening maktabim”	3 310 285
2	Madaniyat bo‘limi	9 407 544
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	4 139 225
5	Sport bo‘limi	5 053 646
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 794 942
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 550 025
8	Irrigatsiya bo‘limi	1 300 000
9	*Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari*	2 117 078
10	*Hokimiyat*	41 938 656
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabgi ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	29 901 473

	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	1 952 000
	Zaxira jamg‘armasi	1 470 058
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	916 716
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	146 330
	Axborot-kutubxona markazlari	770 386
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 855 612

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Avazali MFY	0,93	35 559 480
2	Alisher Navoiy MFY	1,19	45 500 840
3	Amir Temur MFY	0,93	35 559 480
4	Bozorjoy MFY	1,32	50 471 520
5	Boshdarxon MFY	1,32	50 471 520
6	Galarovot MFY	1,19	45 500 840
7	Dahbed MFY	1,32	50 471 520
8	Z.M.Bobur MFY	1,05	40 147 800
9	Istiqlol MFY	0,93	35 559 480
10	Kumushkent MFY	1,05	40 147 800
11	Loyish MFY	1,46	55 824 560
12	Miyonqol MFY	0,93	35 559 480
13	Mustaqillik MFY	1,46	55 824 560
14	Navroʻz MFY	1,46	55 824 560
15	Oytamgʻali MFY	0,93	35 559 480
16	Oqdaryo MFY	1,05	40 147 800
17	Olchintepa MFY	1,05	40 147 800
18	Paxtaobod MFY	1,05	40 147 800
19	Pichoqchi MFY	1,05	40 147 800
20	Primkent MFY	1,05	40 147 800
21	Po‘latdarxon MFY	1,19	45 500 840
22	Sugʻonchi MFY	1,05	40 147 800

23	Taraqqiyot MFY	1,05	40 147 800
24	Temirak MFY	0,93	35 559 480
25	Turon MFY	1,05	40 147 800
26	Oʻzbekiston MFY	1,05	40 147 800
27	Uzunqishloq MFY	0,93	35 559 480
28	Uchtepa MFY	0,93	35 559 480
29	Chorbogʻ MFY	1,32	50 471 520
30	Yangiqishloq MFY	1,05	40 147 800
31	Yangiqoʻrgʻon MFY	1,19	45 500 840
32	Yangiobod MFY	1,05	40 147 800
33	Zarafshon MFY	1,05	40 147 800
34	Goʻzalkent MFY	1,19	45 500 840
35	Yangihayot MFY	1,19	45 500 840

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Xalq deputatlari Oqdaryo tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-023-7-92-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
1	Avazali MFY	1,23	324,9
2	Alisher Navoiy MFY	1,37	361,9
3	Amir Temur MFY	1,23	324,9
4	Bozorjoy MFY	1,37	361,9
5	Boshdarxon MFY	1,09	287,9
6	Galarovot MFY	0,96	253,6
7	Dahbed MFY	1,37	361,9
8	Z.M.Bobur MFY	1,23	324,9
9	Istiqlol MFY	0,96	253,6
10	Kumushkent MFY	1,09	287,9
11	Loyish MFY	1,51	398,9
12	Miyonqol MFY	0,96	253,6
13	Mustaqillik MFY	1,51	398,9
14	Navro‘z MFY	1,51	398,9
15	Oytamg‘ali MFY	0,96	253,6
16	Oqdaryo MFY	1,23	324,9
17	Olchintepa MFY	1,09	287,9
18	Paxtaobod MFY	1,09	287,9
19	Pichoqchi MFY	1,09	287,9
20	Primkent MFY	0,96	253,6
21	Po‘latdarxon MFY	1,23	324,9
22	Sug‘onchi MFY	1,09	287,9
23	Taraqqiyot MFY	1,23	324,9
24	Temirak MFY	1,23	324,9
25	Turon MFY	1,09	287,9

26	Oʻzbekiston MFY	1,23	324,9
27	Uzunqishloq MFY	0,96	253,6
28	Uchtepa MFY	0,96	253,6
29	Chorbogʻ MFY	1,09	287,9
30	Yangiqishloq MFY	0,96	253,6
31	Yangiqoʻrgʻon MFY	1,23	324,9
32	Yangiobod MFY	1,23	324,9
33	Zarafshon MFY	0,96	253,6
34	Goʻzalkent MFY	1,09	287,9
35	Yangihayot MFY	1,23	324,9